
JINOIY REJA AMALGA OSHMADI

Jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudining "qora kursi"sida "Xorijga bemalol o'tkazib, ishga joylashtirib qo'yaman", deya vositachilik rolini o'ynagan 8 nafar kimsalar o'tiribdi.

Sudlanuvchi A.Ahmedov tergovda shaxsini aniqlashning imkoni bo'lmagan Zokir, S.Mamasaidov, D.Karimov, D.Omonov, I.Tursunov, N.Esonbekov, X.Yusupovlar moddiy manfaatdorlikni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi "Davlat chegarasidan o'tish tartibi to'g'risida"gi Qonuni talablarini qo'pol ravishda buzib, fuqarolarni Qirg'iziston Respublikasida yollanma ishchi bo'lib ishlash uchun chegara nazorati o'rnatilmagan aylanma yo'llar orqali qonunga xilof ravishda o'tkazib qo'yish rejasini tuzishadi.

Jinoiy rejaga ko'ra, X.Yusupov tanishlari D.Karimov, X.Karimov (X.Karimovga nisbatan qidiruv e'lon qilingan), D.Omonov, I.Tursunov va Z.Xoliqovlarga "men bilan O'sh viloyati, Uchqo'rg'on qishlog'ida yashik tayyorlash tsexida ishlab, mo'may daromad topasizlar, u erda meni tanishim bor. Qirg'izistonga o'tkazib qo'yadi", deya qo'ynilarini puch yong'oqqa to'ldiradi. Ular rozi bo'lishadi.

O'tgan yil 13 sentyabr kuni jinoiy guruh a'zolari Oltiariq tumani markaziga to'plangan ishchilarni olib, Farg'ona shahriga kelishadi. Ularni A.Ahmedov, S.Mamasaidov kutib olishadi. Quvasoy-Farg'ona yo'nalishida yo'lovchi tashuvchi N.Esonovning "Damas" rusumli avtomashinasida Quvasoy shahar, Polmon qishlog'idagi chegara postini chetlab, O'zbekiston Respublikasining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh hududiga yaqin joyga olib kelishadi. Ammo xorijga ishlash uchun ketayotganlar MXX Farg'ona viloyati boshqarmasi xodimlari tomonidan qo'lga olindi. Jinoiy guruhning rejasi amalga oshmadi.

Sudlanuvchi A.Ahmedov sudda aybiga to'liq iqror bo'ldi. 2016 yilning iyul oyida Qirg'iziston Respublikasining Batken viloyati, Qaqir qishlog'ida yashovchi Zokir ismli shaxs unga qo'ng'iroq qilib, ustachilik bilan shug'ulladagigan shaxslarni Qirg'iziston Respublikasi hududiga o'tkazishga yordam berishini aytadi. Taklifga rozi bo'lib, ishchilarni to'plab, Quvasoy shahriga olib borishga va'dalashadi. Ammo ularning g'arazli niyati amalga oshmadi. Hamyurtlarini jar yoqasiga boshlab, jirkanch ishga aralashib qolganidan chin pushaymonligini bildirib, engillik berishlarini so'radi.

Jinoiy guruh a'zolarining har biriga tegishli jazo tayinlandi.

M.SALIMOVA.

2017-11-06 10:55:38